




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA’LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
INTERNATIONAL BUSINESS AKADEMIK LITSEYI**
Davlat o‘rta maxsus ta’lim tashkiloti

3940000 – Xorijiy filologiya (ingliz tili, ona tili va adabiyot)
O‘rta maxsus ta’lim



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

3940000 – Xorijiy filologiya (ingliz tili, ona tili va adabiyot)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
INTERNATIONAL BUSINESS AKADEMIK LITSEYI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: JUCHKOV MAKSIM ALEKSANDROVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi



A'zo: NASIROV NAVRO'ZBEK ALLAMURATOVICH

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAA260003
Xulosa raqami	662
Xulosa sanasi	22.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti International Business akademik litseyi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, .G'ofurov ko'chasi, 183-uy. Litsenziya: № 011483-08, 13.07.1993. Guvohnoma: MAS №0000174, 19.07.2026
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Xorijiy filologiya (ingliz tili, ona tili va adabiyot)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	3940000
Akkreditatsiya usuli	Joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 011483-08 / 13.07.1993
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	O'rta maxsus ta'lim
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	3940000 – Xorijiy filologiya (ingliz tili, ona tili va adabiyot)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	3940000 – Foreign Languages (English Language, Native Language and Literature)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	3940000 – Иностранные языки (английский язык, родной язык и литература)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	3-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, M.G'ofurov ko'chasi, 183-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, davlat ta'lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani va tasdiqlangani*</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligining ta'minlangani</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi</i>	Muvofiq
3.6.	<i>o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi</i>	Muvofiq
4.	O'quvchilar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi*</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim tashkilotidagi o'quv va laboratoriya xonalarini ta'lim dasturiga mosligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) bilan jihozlangani*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moddiy-texnik baza, jihozlar, asbob-uskunalar va reaktiv moddalar hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturlariga mosligi, xavfsizlik qoidalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqib jihozlangani*</i>	Muvofiq
6.5.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani</i>	Muvofiq
6.6.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi*</i>	Muvofiq
6.7.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)</i>	Muvofiq
6.8.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti International Business akademik litseyida ushbu yo'nalish bo'yicha barcha mezon va indikatorlar to'liq darajada bajarilgan. Shakllangan tashkiliy tuzilma, samarali ishlayotgan ichki sifatni ta'minlash tizimi, xavf-xatarlarni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi hamda hujjatlashtirish jarayonlarining shaffofligi ta'lim dasturining barqaror rivojlanishi va uzluksiz takomillashuvi uchun mustahkam institutsional asos yaratgan.

Taqdim etilgan hujjatlar ta'lim muassasasining boshqaruv va sifatni ta'minlash borasidagi yondashuvini tizimli, barqaror va xalqaro talablarga mos tarzda ifodalaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari

Ta'lim dasturining maqsadlari va natijalari Davlat ta'lim standarti (DTS) va Milliy malakalar ramkasi (MMR) talablariga to'liq mos ravishda belgilangan. Dasturni ishlab chiqish jarayoni manfaatdor tomonlar (yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar, soha mutaxassislari) ishtirokida belgilangan tartibda amalga oshirilgan va rasman tasdiqlangan.

Ta'lim dasturining davomiyligi (2 yil, 3960 soat) hamda fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangan, fanlar ketma-ketligi o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimiga muvofiqlashtirilgan. Amaldagi ta'lim dasturlari tizimli ravishda monitoring qilinib boriladi va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu yo'nalish bo'yicha barcha majburiy va umumiy mezonlar davlat talablariga to'liq javob beradi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash

O'quv jarayonini tashkil etish va baholash bo'yicha barcha majburiy indikatorlar talab darajasida bajarilgan. Baholashning uch turi (joriy, oraliq, yakuniy) aniq tartibga solingan, baholash tartibi rasmiy hujjat sifatida tasdiqlangan, o'quvchilarning fikr-mulohazalari va shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Tavsiya etilgan takomillashtirish choralari (baholash rubrikalarini kengaytirish, monitoring hisobotlarini raqamlashtirish, manfaatdor tomonlar fikrini tizimli yig'ish) amalga oshirilganda yo'nalish samaradorligi yanada oshadi.

4-bob. O'quvchilar faoliyati

Qabul jarayoni shaffof va tartibli tashkil etilgan: o'quvchilarni qabul qilish mezonlari aniq belgilangan, DTS talablari va litsey resurslariga mos ravishda shakllantirilgan, qabul va apellyatsiya komissiyalari rasmiy buyruqlar bilan tasdiqlangan. O'quvchilarga akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda maslahat berish mexanizmlari rejalashtirilgan, shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi Nizom bilan belgilangan.

Ushbu yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar talablarga muvofiq tashkil etilgan, o'quvchilarning huquqlari himoyasi ta'minlangan.

5-bob. Inson resurslari

Inson resurslari yo'nalishi bo'yicha barcha majburiy indikatorlar talab darajasida bajarilgan. Akademik litseyda xorijiy filologiya yo'nalishini sifatli amalga oshirish uchun yetarli malakali va tajribali pedagogik jamoa shakllantirilgan, xorijiy til o'qituvchilarining 70% dan ortig'i C1–C2 darajadagi xalqaro sertifikatlarga ega. Kadrlar siyosati ta'lim dasturi maqsadlariga to'liq mos ravishda tizimli boshqarilmoqda.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy infratuzilma mavjud, o'quv xonalari AKT vositalari bilan jihozlangan, barqaror internet ulanishi va raqamli ta'lim muhiti (EMIS AL) yaratilgan.

Inklyuziv ta'lim, kutubxona fondini yangilash va xavfsizlik sxemalarini to'liq joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilanishiga olib keladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Jihoz va asbob-uskunalardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar va xavfsizlik yo'riqnomalari ishlab chiqilmagan.

- ✓ O'quv va laboratoriya xonalarida xavfsizlik jurnallarini yuritish tartibi belgilanmagan, birinchi tibbiy yordam vositalari har bir xonada mavjud emas hamda evakuatsiya sxemalari ko'rinadigan joylarda o'rnatilmagan.
- ✓ Axborot-resurs markazi fondining bir qismi eskirgan (1990–2010-yillarda nashr etilgan) xorijiy adabiyotlardan iborat bo'lib, ayrim adabiyotlar soni cheklangan (1–2 nusxa).
- ✓ Binolar va o'quv xonalari inklyuziv ta'lim uchun to'liq moslashtirilmagan (6.5.1), oshxona joriy ta'mirlash holatida bo'lib, sentyabrgacha ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Koridorlar va o'quv xonalarida evakuatsiya sxemalari hamda xavfsizlik ko'rsatmalarini o'rnatish, jihoz va asbob-uskunalaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish, o'quvchilar va xodimlar uchun har semestrda xavfsizlik qoidalari hamda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy treninglar o'tkazish.
- ✓ Kutubxona fondidagi eskirgan xorijiy adabiyotlarni zamonaviy nashrlar bilan almashtirish rejasini tasdiqlash, CEFR standartlariga mos o'quv qo'llanmalar va IELTS/TOEFL tayyorgarlik adabiyotlarini xarid qilish, Cambridge University Press, Oxford University Press, Macmillan kabi nashriyotlarning elektron kutubxona obunalarini sotib olish hamda TDIU Markaziy kutubxonasi bilan hamkorlik memorandumini imzolash.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun zarur jihozlar ro'yxatini shakllantirish, xarid jarayonini boshlash va tegishli chora-tadbirlarni akademik litsey strategik rejasiga kiritish.
- ✓ Baholash rubrikalarini kengaytirish, ichki monitoring natijalari va hisobotlarni raqamli tizimlar (EMIS AL, elektron jurnal) orqali yuritish, o'quvchilar, ota-onalar va ish beruvchilarning baholash tizimi bo'yicha takliflarini tizimli yig'ish tartibini joriy etish.
- ✓ Tarkibiy tuzilma faoliyatini baholash uchun KPI tizimini joriy etish, moddiy-texnik bazani (jumladan, 2014–2017-yillarda xarid qilingan kompyuter parkini) bosqichma-bosqich yangilash bo'yicha yillik rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish.

- ✓ Ish beruvchilar va OTM vakillaridan iborat maslahat kengashini tashkil etish, mehnat bozori monitoringini raqamlashtirish, xalqaro tadbirlar, sertifikatlash (IELTS, TOEFL) va stajirovka dasturlarida pedagoglar ishtirokini kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA


Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "International Business" akademik litseyining 3940000 – "Xorijiy filologiya: ingliz tili, ona tili va adabiyot" yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ta'lim dasturining maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlariga muvofiq kelishi tashqi baholash natijalari asosida tasdiqlandi. Dasturning barcha tarkibiy unsurlari, jumladan, samarali tashkiliy-boshqaruv tizimi, ilmiy asoslangan o'quv rejasi, yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi, zamonaviy moddiy-texnik bazasi hamda ta'lim sifatini doimiy monitoring qilish va baholash mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda xalqaro CEFR mezonlariga rioya etilgan holda shakllantirilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Ekspert komissiyasi tomonidan aniqlangan ayrim kamchiliklar juz'iy xarakterga ega bo'lib, ta'lim dasturini yo'lga qo'yishga to'sqinlik qilmaydi hamda tavsiya etilgan chora-tadbirlar doirasida bosqichma-bosqich, izchil va monitoring ostida bartaraf etilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ekspert komissiyasining yakuniy xulosasiga muvofiq mazkur ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlariga muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

